


VI. TRANSPORT



Transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 2 619,9 mlrd so'mni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,6 % ni tashkil etdi.




Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha ifodalanishi

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2025-yil yanvar-dekabr)



Yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha ifodalanishi

	2025 yil yanvar-dekabr	O'sish sur'ati, % da
--	------------------------	----------------------

Yuk tashish va yo'lovchi tashish



Tashilgan yuk, mln tonna	40,1	103,9
--------------------------	------	-------

shu jumladan:

Avtomobil transportida	40,1	103,9
------------------------	------	-------

Tashilgan yuklar o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi

Yuk aylanmasi, mln tn-km	1 210,5	105,0
--------------------------	---------	-------

Tashilgan yo'lovchilar o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,2 % ni tashkil etdi

<i>shu jumladan:</i>		
----------------------	--	--

Avtomobil transportida	1 210,5	105,0
------------------------	---------	-------

Yuk tashish va yo'lovchi tashish (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Yuk tashish	103,6 %	100,6 %	103,9 %
Yo'lovchi tashish	101,7 %	101,0 %	105,2 %
	2023-yil	2024- yil	2025-yil

Yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo'yicha ifodalanishi

Transport statistikasi bu – transportda sodir bo'ladigan hodisalar va jarayonlarni o'rganadigan statistika sohasidir. Transport statistikasi ko'rsatkichlari transportning alohida turlari bo'yicha ma'lumotlarni: temir yo'l, avtomobil, shahar elektr, quvur yo'li va havo ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Yuk tashish (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj va pochmani qo'shgan holda). Ko'rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo'yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo'natilgan yuklar (jo'natish)” ko'rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” ko'rsatkichi hisoblanadi.


Yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan)



So'nggi uch yil ichida yuk tashish ko'rsatkichlarining sezilarli o'sishi 2023 va 2025-yillarning yanvar-dekabr oylarida qayd etildi. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida esa, o'sish sur'atining kamayishi kuzatildi.

Yuk tashish bo'yicha barcha kuzatilayogan transport turlari orasida avtomobil transportining ulushi ustunlik qildi (40,1 mln tonna).

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
(2025- yil yanvar-dekabr)**



Yo'lovchi tashish 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 101,3 mln kishi tashilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 105,2 % ni tashki qildi.

Yirik korxonalar bo'yicha:

Viloyatda kuzatilayotgan davrda avtotransport ishi bo'yicha hajmli korxonalar soni 28 tani tashkil etib, ular tomonidan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 3,1 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139,5 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 7,7 %);

Yuk aylanmasi hajmi 47,4 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 193,4 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 3,9 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 0,8 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117,5 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 0,8 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 23,7 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 m. ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 0,9 %).

Iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznesning yo'lovchi tashish bo'yicha ulushi 99,2 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2025- yil yanvar-dekabr	2024- yil yanvar-dekabr nisbatan % da
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln kishi	101,3	105,2
<i>shu jumladan:</i> avtomobil transportida	<i>101,3</i>	<i>105,2</i>
Yo'lovchi aylanmasi, mln yo'lovchi-km	2 689,6	101,2
<i>shu jumladan:</i> avtomobil transportida	<i>2 689,6</i>	<i>101,2</i>

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha:

2025 -yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transporti bo'yicha quyidagi asosiy ko'rsatkichlar shakllandi:

Tashilgan yuklar hajmi 28,2 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 70,3 %);

Yuk aylanmasi hajmi 572,4 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 47,3 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 34,3 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,8 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 33,8 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 706,1 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 26,3 %).

Yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'yicha:

Tashilgan yuklar hajmi 8,8 mln tonna, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,7 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yuklar hajmidagi ulushi 22,0 %);

Yuk aylanmasi hajmi 590,6 mln t-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni tashkil etdi (jami viloyat yuk aylanmasi hajmidagi ulushi 48,8 %);

Tashilgan yo'lovchilar hajmi 66,3 mln yo'lovchi, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,8 % ni tashkil etdi (jami viloyatda tashilgan yo'lovchilar hajmidagi ulushi 65,4 %);

Yo'lovchi aylanmasi hajmi 1 959,9 mln yo'lovchi-km, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,0 % ni tashkil etdi (jami viloyat yo'lovchi aylanmasi hajmidagi ulushi 72,8 %).